



**MASHRAB G‘AZALLARINING G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI**

Mannopov Islombek Sultonaliyevich

Filologiya fanlari doktori

Olimova Durdona Bobirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mashrab g‘azallarining mavzu doirasi, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, baytlarda qo‘llangan she’riy san’atlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ishq, rahnamo, folklor, ijtimoiy-falsafiy.

Abstract: The article reveals the subject matter, ideological and artistic characteristics of Mashrab ghazals, and the poetic arts used in the verses.

Keywords: love, leader, folklore, socio-philosophical.

Аннотация: В статье раскрываются тематика, идейно-художественные особенности газелей «Машраб», а также поэтические приёмы, использованные в стихах.

Ключевые слова: любовь, лидер, фольклор, социально-философский

O‘zbek mumtoz adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan, otashnafas shoirlardan biri Rahimbobo Valibobo o‘g‘li Mashrabdir (1653-1711). Uning hayoti va ijodi XVIII - XIX asrlarda tuzilgan „Muzakkir ul-as‘hob“, “Tazkirai qalandaron” singari tazkira va tasavvufiy yo‘nalishdagi asarlarda zikr etilsa-da, ularda shoir



hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab, devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat „Devoni Mashrab“, „Devonai Mashrab“, „Eshoni Mashrab“, „Hazrati shoh Mashrab“ nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi noma'lum) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, shu jarayonda asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Qissalar keyinchalik o'zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to'qimalar, yangi-yangi rivoyat, naqlar, sarguzasht va latifasimon lavhalar bilan to'ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab va uning ijtimoiy-ijodiy faoliyati xalq tasavvuridagi to'qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht-rivoyatlar bilan qorishib ketgan. Shunday bo'lsa-da, Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo'lini nisbatan to'la va bosqichma-bosqich bayon etuvchi, shuningdek, yaratgan asarlarining ko'pgina qismini o'zida jamlovchi adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mashrab hech qachon bir joyda muqim o'tirib, ijodini yozib qoldirmagan. Xalq orasida, bozorlarda, davralarda aytgan she'rlari xuddi dostonlar singari og'izdan og'izga o'tib mashhur bo'lgan, muxlislari ko'nglidan joy olgan. Shuning uchun ham asarlarida ko'plab folklor namunalar uchraydi va uning g'azallari xalq merosiga aylanib, hofizlarimiz tomonidan qo'shiqlar kuylanib kelmoqda:

”Man nola qilay shomu sahar dod eshigingda,

Jonimni beray sho'xi parizod, eshigingda...”¹

¹Mashrab.Devon – ”Sharq” nashriyot.matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent , 2019

Shoir ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, g‘azallarida diniy-tasavvufiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-falsafiy mavzular yetakchilik qiladi. Hayoti davomida har bir bosib o‘tgan yo‘llaridan o‘rnaklar keltiriladi. Turli davralarda kuylagan g‘azallari orqali avomning qalb ko‘zini ochishga harakat qiladi. Riyokor, ikkiyuzlamachi kishilarni tanqid qiladi, ayovsiz ‘‘savalaydi’’:

‘‘Har kishi so‘rsa nasabdin, dam urarlar nafs uchun,

Botini fir‘avn-u zohir - avliyolarni ko‘rung.

Zohirida so‘fiyman deb tarki dunyo aylagan,

Botini dunyoga moyil baxti qarolarni ko‘rung.’’[1.27]

G‘azalda tashqi ko‘rinishi avliyosifat, lekin qalbi doim dunyo xoy-havasiga moyil, ya‘ni zohiri go‘zal, botini vayron kimsalar haqida so‘z boradi. Mashrab g‘azallarining bugungi kungacha yashab kelishi, muxlislar ko‘nglidan joy olishining asosiy sabablaridan biri ham shu aslida. To‘g‘rilik, samimiyluk, halollik fazilatlarini insonlardan uzoqlashib borayotgan, ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, g‘aflat illatlari jamiyatning global muammolaridan biriga aylanayotgan davrda shoir ijodi katta ahamiyat kasb etadi. Bu illatlar jamiyatni ichdan kemirib, insoniyatni falokat yoqasiga keltirgani ochiq haqiqat. Masalan, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini pokdomon ko‘rsatib, real hayotda razolatga botgan kimsalar ko‘pligi qaysidir ma‘noda bu fikrga isbot bo‘la oladi.

Mashrab she‘riyatida tasavvufiy mavzu va g‘oyalar talqini yetakchi o‘rinda turadi. Ularni badiiy ifoda etishda talmeh usulidan o‘rinli foydalangan. Shoir Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Mansuri Halloj singari tarixiy shaxs, avliyolarga ishora qilish orqali haqiqiy ishq va oshiqlik darajalarini talqin qilgan:

‘‘Shams Tabriziyga qul bo‘ldung, haqiqatdin gapur,



Hamchunon Mavloyi Rumiylar muni izhor qil''[1.92]

''Shahidi ishq bo'lg'an oshiqi bechora ahvolin,

O'shal dam Mansuri maston osilg'an dordin so'rg'il''[1.93]

Mashrab she'rlarida Qur'on oyatlari, hadisi sharif mazmunini ham talmeh san'ati vositasida badiiy ifoda etadi. Murojaat usuli faol qo'llangan quyidagi baytda munajot ruhi, solik obrazi namoyon bo'lgan:

''Sirotal-mustaqim otlig' guzargohingdin o'tkargil,

Mani gumrohg'a, yo Rab, rahmatingni rahnamo qilg'il''.[1.91]

Baytidagi "sirotal-mustaqim" iborasi fikrimizning isbotidir. Ya'ni bayt Yo Rab, mendek adashgan bandangga rahmatingni rahnamo, yo'lboshchi qil, to'g'ri yo'lga, Haq yo'lga boshlagin mazmunida solikning tavajjuhi – Yaratganga suyanishi, iltijo ruhida ifoda qilingan.

Mashrab ijodida "haqiqiy ishq"ni majoziy usulda ifodalash tendensiyasi ham mavjud.

Qomatingni ko'rsalar Mahsharda inson-u malak,

Hur-u g'ilmonlar bo'lub jami barcha hayron bo'lg'usi. [1.83]

Baytda ma'shuqa go'zalligining tengsiz ekanligi vasf qilingan, oshiq obrazi faol ishtirok etgan. Haqiqiy talqinda "Mahsharda jamolingni ko'rgan odamlar, farishtalar, hur-u g'ilmonlarning barchasi hayratga tushadi" degan mazmun kelib chiqadi.

Mashrab g'azallarining tez va oson yod olinishi, tilga, dilga jo bo'lishining sabablaridan biri ularning juda katta mahorat bilan bitilganidir. Shoir asarlarini rang-barang badiiy san'atlar bilan boyitilganidir. Xususan, baytlarda talmeh, istiora, takrir tashbeh, tanosub, ishtiyoq san'atlaridan keng foydalangan.





Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,

Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.[1.95]

G‘azalda ”qalandar bo‘l, qalandar bo‘l” takrori orqali takrir badiiy san’ati yuzaga kelgan, shoir badiiy maqsadini ifodalashda yetakchi o‘rin tutgan.

Bundan tashqari keltrilgan ba’zi talmehlar shoir tug‘ilgan joyi, qayerlarni ziyorat etganliklari, kimlar bilan uchrashganliklari, ya’ni biografik ma’lumotlarni ham taqdim etadi:

”Mashrab o‘zi devona, ishq o‘tig‘a parvona,

Yo‘l yurodur sarsona, Mullo Bozor devona”[1.56]

Ushbu g‘azalida shoir birinchi ustози Mullo Bozor Oxund madh etilgan. Shu bilan birgalikda “devona” atamasi orqali muallifning so‘fiylik maslagida ekanligi oydinlashadi.

Boshqa g‘azallarda payg‘ambarlar, farishtalar, ilohiy kitoblar nomi orqali ham talmeh san’ati yuzaga kelgan:

Chiqti Rasul Me’roja shab, Jabrail ergasholmadi,

Mashrab, bu sirni bilg‘ali orifi billoh kerak.[1.89]

Xulosa qilib aytganda, Boborahim Mashrab to‘g‘rilik, halollik, samimiyluk singari insoniy fazilatlarni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan. Ishq va oshiqlik, qalandarlik mavzularini badiiy ifodalashda talmeh, takrir singari badiiy san’atlardan unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mashrab. Devon - "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent, 2019





2. Shoh Mashrab qissasi - www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Boborahim Mashrab ijodida tasavvufiy qarashlarning aks etishi - Samatova Shahnozaxon Oybekovna
4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Istiqlol, 1999
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent, 1991

